

# Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2019 yil yanvar-sentabr

(dastlabki ma'lumot)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2014,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **27,5%** ga o'sishni ta'minladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik ish haqi.

(2019 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Viloyat bo'yicha - jami</b>	<b>148473</b>	<b>2691,3</b>	<b>2014,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	14547	366,9	2802,4
Qurilish	5385	85,6	1766,7
Savdo	2667	42,4	1765,2
Tashish va saqlash	13267	342,9	2872,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	584	7,4	1411,8
Axborot va aloqa	1257	25,8	2276,5
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3346	119,2	3958,4
Ta'lim	55321	851,3	1709,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25677	386,7	1673,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2548	36,6	1596,1
Boshqa faoliyat turlari	23874	394,1	1834,3



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o`rtacha oylik ish haqi ulushi jamiga nisbatan **Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik** soxasida (**196,5%**), tashish va saqlashda (**142,6%**), sanoatda (**139,1 %**), axborotlashtirish va aloqada (**113,0%**), qurilishda (**87,7 %**), savdoda (**87,6 %**), ta`limda (**84,9%**), sogliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (**83,1%**), san`at ko`ngil ochish va dam olishda (**79,2%**) va boshqa yo`nalishlarda (**91,1%** ) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-sentabr, viloyatdagi o`rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




2019 yil yanvar-sentabr

(dastlabki ma'lumot)

## Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Buxoro viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kogon shahrida **2859,4** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **142,0 %**), Qorovulbozor tumanida **2786,2** ming so'mni (**138,3 %**) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Vobkent tumanida **1575,3** ming so'mni (**78,2 %**), Peshko' tumanida **1582,4** mingso'mni (**78,6 %**) va Jondor tumanida **1637,8** ming so'mni (**87,6 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-sentabr viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi  
(ming so`mda)**

	<b>2018 yil yanvar-sentabr</b>	<b>2019 yil yanvar-sentabr</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1579,2</b>	<b>2014,1</b>	<b>127,5</b>
Buxoro sh.	1594,2	2136,5	134,0
Kogon sh.	2205,3	2859,4	129,7
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1414,0	1781,2	126,0
Buxoro	1307,0	1757,9	134,5
Vobkent	1224,4	1575,3	128,7
G'ijduvon	1264,4	1696,3	134,2
Kogon	1369,0	1786,9	130,5
Qorako'l	1196,9	1647,1	137,6
Qorovulbozor	2386,5	2786,2	116,7
Peshko'	1309,9	1582,4	120,8
Romitan	1714,4	1764,0	102,9
Jondor	1240,0	1637,8	132,1
Shofirkon	1192,6	1658,5	139,1

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik  
ish haqi.**

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %
--	----------------------------	----------------------------	----------------------

<b>Viloyat bo'yicha - jami</b>	<b>1503,3</b>	<b>2014,1</b>	<b>127,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2617,6	2802,4	107,1
Qurilish	1699,3	1766,7	104,0
Savdo	1514,4	1765,2	116,6
Tashish va saqlash	2366,3	2872,0	121,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1504,6	1411,8	93,8
Axborot va aloqa	1715,8	2276,5	132,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	2772,1	3958,4	142,8
Ta'lim	1251,8	1709,8	136,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1191,0	1673,2	140,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1229,1	1596,1	129,9
Boshqa faoliyat turlari	1305,5	1834,3	140,5



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlari yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjalariiga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-soni "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1 sentyabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.

